

“BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARNING AQLIY TARQQIYOTI
RIFOJLANISHIGA TA`SIR ETUVCHI OMILLAR”

Mirzaolimova Yorqinoy Furqatjon qizi

Farg'ona viloyati Quvasoy shaxar

10- umumiy urta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni yechishda psixologiya yondashuvlarining nazariy va amaliy tomonlaridan foydalanish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, boshlang'ich ta'lim, ma'naviyat, pedagogika

Аннотация: В данной статье рассматривается использование теоретических и практических аспектов психологии при решении проблем, возникающих при развитии психического развития учащихся в системе начального образования.

Ключевые слова: психология, начальное образование, духовность, педагогика.

Abstract: This article discusses the use of theoretical and practical aspects of psychology in solving the problems that arise in the development of students' mental development in the primary education system.

Key words: psychology, primary education, spirituality, pedagogy

Bugungi kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, istedodli yoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan talim jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo`lmaydi. Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta'lim-tarbiya faoliyatisiz amalga oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va ta'lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir. Talim tizimini tubdan isloh qilish hozirgi davr talabi bolib, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'quv dasturini mukammallashtirish, muammoli darslarni tashkil qilish ta'limni mukammallashtirishga qaratilgandir. Ta'lim jarayonida o'quvchi faollik ko'rsatmasa amalga oshirilayotgan tadbirlar ko'zlangan natijani bermaydi. Ta'lim jarayonida oquvchilarni mustaqil ishlashga orgatish ham muhimdir. Ta'lim jarayonida ular, maktab oquvchilariga qo'yiladigan har - xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun ko'nikma, malakalar yetarli darajada rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgach bola oz atrofida bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila azolarining bola o'quv faoliyati yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgartirishini to'la his etishga o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos boladi. Ta'lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko'lamini kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish

vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o`rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bola maktabga qadam qo`yishi bilanoq unga bo`lgan munosabat va talablar orqali o`ziga xos bo`lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart - sharoitlar yaratish oila, maktab talim tizimiga ulkam masuliyat hissini yuklaydi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk axloqiy odobli, kishilar bolib yetishishi hozirgi kunning muhim vazifadir. Ma'lumki o'quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo'lga qo'yish uchun avvalo ularning karakter xususiyatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlashtirgani aniqlamay ular bilan yakkama- yakkamuniosabatga kirishish mumkin emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan tashqi taasurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk alomallarimiz ta kidlaganidek, kishining fe'l atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarni tarkib toptirish yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir hatti- harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshriqlarni bekam-u ko'st bajarishga intiladilar. Ana shu davrga o'qituvchi uchun o'qituvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish ijobiy his tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qo'llab-quvvatlash ularni atrofdagi kishilar yordam berishga undashadi. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ul lanish kerakligini burch hissini tushuntirish, ular bilan o'qilgan kitoblarni ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi shu ularni g'aroyibotlar olamiga olib kirishi faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishdagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologil xususiyatlarini hisobga olish shart.

Ma'lumki o'quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib, bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta' sir vositasi boshqa birga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlash o'quvchilarga yakkama-yakka yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir. Mana shunday yondashishlar o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davidagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topish. O`qishni talab qiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarga g'amxo'rliqi pedagogik odobi o'z hatti harakatining natijasini oldindan ko'ra olish muhim ro'l o'ynaydi. Mazkur vazifalarni amalgam oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvoffaqiyatlarning garovidir.

Ta'lim - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki bunda bolalarda shaxsning kichik yoshda o' quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta'limini dastlabki yillaridagi qiziqishlar, xususan bilishga bo`lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bolgan qiziqish koproq intilektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi. Psixologlarni ta'kidlashicha,

dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil boladi. O`qish faoliyatida kichik yoshdagi oquvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bolgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqish o`quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo`ladi va uning shaxsiy individual sifatida oquvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O`quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan xilma - xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar oquvchilarning yoshligidan paydo bola boshlaydi.

Ma'lumki I-II sinf o`quvchilarida hali yaqqol namoyon bo`lmaydi, o`quvchilar o`qish jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo`ladilar. O`zlari o`zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa sabablarni, qonuniyatlarni hodisalar ortasidagi aloqa va bog`liqliklarni bilib olish uchun bo`lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar III sinf o`quvchilarini "Bu nima?" - degan savol ko`proq qiziqirsam, bir muncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun "Nima sababdan?" , "Qanday qilib?" degan savollar muhim bo`lib qoladi. O`qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o`qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastavval kitob o`qishga, undan so`ng esa mazmuni o`tkir va qiziqarli bo`lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o`qishga, bundan so`ng qiyin bo`lmagan ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o`qishga qiziqish paydo boladi. Ma'lumki, I-II sinf o`quvchilarini o`zlashtirayotgan materialni mazmuni, o`qish ishlarining ayrim usullari o`ziga jalb eta boshlaydi. III va IV sinf o`quvchilarining mustaqilligi o`sib boradi. Bu yoshdagi o`quvchilar aqliy faoliyat usullari, o`z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o`stirish uchun bog`liq bo`lgan barcha ishlarga qiziqqa boshlaydi. IV sinfda o`quvchilar o`zlarining har xil fanga bolgan aniq belgilaydilar. Bu fanlardan ba'zilarga ko`proq e'tibor berib uni yoqtirsalar, ba'zilarini yoqtirmaydilar. O`quvchilar qaysi ishdan ko`proq qanoat hosil qilsalar, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganda o`ziga bo`lgan ishonchni yo`qotmasligi, o`ziga topshirilgan ishni bajara olishini bilish, buning uchun esa faqat g'ayrat - shijoat halollik ko`rsatish kerakligini anglashi kerak. O`quvchilarda ta'lim va tarbiya olish, dam olish tartibining to`g`ri uyushtirilishi ham o`quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo`lishiga muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida bir xillik, uzoq cho`zilgan faoliyat ko`p hollarda bolani to`liqtiradi, uning faolligini pasaytiradi va hali to`la belgilanib bo`lmagan qiziqishlarni so`ndiradi. O`quvchilarni qiziqishlari kattalarni diqqat e'tiborida bo`lishi lozim. Bolalarni ijobiy qiziqishlari kattalar tomonidan rag`batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarini payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o`ziga jalb etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o`qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir. O`quvchi uchun o`qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o`qituvchi o`quvchilarga yuksak ma'naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo`lishiga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda texnikaga, hozirgi zamon texnikalari, eng yangi tipdagi avtomobil, samolyot, kopmyuterga bo`lgan qiziqishlar tez tarkib topadi. Qishloq maktablarining III va IV sinf o`quvchilari qishloq xo`jaligiga nisbatan sezilarli darajada o`z qiziqishlarini namoyon qila boshlaydi. Bolalar parandalarni, uy hayvonlarini bajonidil boqadilar va ular haqida ma'lumotlar to`play boshlaydilar. Bu esa bolalarni bilish darajasini rivojlanishiga ta'sir etib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o`qishga bo`lgan izishni rivojlanishi to`g`ridan - to`g`ri ta'limning tashkil qilinishiga bog`liq. Shuning uchun o`qituvchi boshlang`ich sinf o`quvchilarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishlari

kerak. O'quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O'quvchilarni ta'limni o'zlashtirishga quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: O'quvchilar qanchalik yosh bo'lsalar, ta'lim shunchalik ko'rgazmali bo'lishi hamda faol harakt qilish katta rol o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xususan o'qituvchining tegishli bahosi bilan aniqlaniladigan bolaning o'qishdagi o'z muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritgan yutuqlarini ichdan his qilish katta ahamiyatga ega. Barcha o'quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o'zlashtirishning asl sababini ko'rsatmasligi mumkin. Ma'lumki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bolgan muhim omil go`yoki chetda qolib ketadi.

Avvalombor shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, oquv materialining muhim va asosiy larni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi. Uchinchi sinf o'quvchilarning odob to'g'risidagi fikr, va mulohazalari mazmuni va shakli va tuzilishi bilan fikr mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko'lami kengroqligi yosh davri xususiyatiga bog'liq farq bilan narsaga turlicha qarsh har xil yondashish muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo'yicha ham farqlar mavjuddir. I-III sinf o'quvchilarida axloqiy tushunchalarni tarkib topishi uchun avvalo har bir tushunchaning muhim alomatini ajratishning umumlashtiruvchi ikkinchi darajali belgilarni topishi o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishdagi psixologik xususiyatlarini o'rganishdan maqsad ta'lim tarbiya jarayonlarida o'quvchilarning o'zlashtirishga to'siq bo'lgan muammolarni aniqlash va hal qilishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y
2. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y
3. Nishonova Z.T. Do'stmuxammedova Sh.A. To'lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya. Toshkent 2011-y
4. Muminova, Sobirova va boshqalar.«Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturlari»
5. www.arxiv.uz